



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 13-yanvar, № 7 (9178)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



NEFT-GAZ SOHASINI TRANSFORMATSIYA QILISH VA GAZ QAZIB OLISH HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

**Prezident Shavkat Mirziyoyev
12-yanvar kuni “O‘zbekneftgaz”
aksiyadorlik jamiyati faoliyatining
kelgusidagi vazifalari va rejalari
yuzasidan taqdimot bilan
tanishdi.**

Energetik xavfsizlikni ta'minlash va iqtisodiyot tarmoqlariga energiya resurslarini uzluksiz yetkazib berish mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, gaz sohasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish va geologiya-qidiruv ishlarini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Taqdimotda “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati oldida turgan eng asosiy vazifa tabiiy gaz zaxiralarini oshirish va qazib chiqarish hajmlarini ko'paytirish ekanini qayd etildi. Kompaniya kunlik gaz qazib chiqarish hajmini 66 million kubometrdan 70 million kubometrga ko'paytirish, bu yil kamida 25,4 milliard kubometr gaz qazib chiqarish choralarini ko'rishi zarurligi ta'kidlandi.

Mavjud imkoniyatlarni ishga solish bo'yicha takliflar ko'rib chiqildi.

Gaz zaxiralarini o'stirish uchun yangi istiqbolli investitsiya bloklarini shakllantirish, investorlarga berilgan ayrim maydonlarda esa ishlarni jadallashtirish va samaradorligini oshirish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Nafta ishlab chiqarish hozirda quvvatning 70 foizida amalga oshirilayotgani, mahsulot esa 50 foiz arzon narxlarda eksport qilinayotgani ko'rsatib o'tildi. Naftadan polimer mahsulotlari ishlab chiqarilsa, qo'shilgan qiymatni 6 karra oshirish imkoniyati borligini hisobga olib, mavjud quvvatlarni to'liq ishlatish choralarini ko'rish topshirildi.

“O‘zbekneftgaz”ning moliyaviy holatini yaxshilash chora-tadbirlari ham ko'rib chiqildi.

Yig'ilishda neft-gaz sohasida o'g'rilik va korrupsiya holatlariga qarshi kurashish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Sohadagi korrupsion xavflarning oldini olish maqsadida “O‘zbekneftgaz” tuzilmasida raisning alohida o'rinbosari lavozimi kiritilib, komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati tashkil etildi. Tizimdagi har qanday noqonuniy holatni tezkor aniqlash va oldini olish bo'yicha samarali tizim yaratish vazifasi qo'yildi.

Prezidentimiz neft-gaz sohasida transformatsiyani chuqurlashtirish, gaz zaxiralari va qazib olish hajmlarini oshirish, moliyaviy intizomni kuchaytirish yuzasidan mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O'zA.

Tadbir

MILLIY ARMIYAMIZ – TINCHLIK VA OSOYISHTALIK KAFOLATI

14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganining 34 yilligi munosabati bilan Oliy Majlis Senatida seminar o'tkazildi.

Uni Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Qutbiddin Burhonov ochar ekan, Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida yurtimizda tinchlik va barqarorlikni, millatlar hamda dinlarning do'stlik va ahillikni yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar salohiyatini oshirish uchun barcha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha belgilab bergan vazifalarga e'tibor qaratdi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar keyingi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar tufayli Qurolli Kuchlar davlat mustaqilligi, chegaralarning daxlsizligi, xalqimizning tinch-osoyishta hayotini ta'minlashning chinakam kafolatiga aylanib borayotganini ta'kidladi.

Harbiy xizmatchilarning jangovar va ma'naviy tayyorgarligi uzluksiz oshib bormoqda. Milliy armiyamiz yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda mardlik va shon-sharaf maktabiga aylanmoqda. Eng muhimi, xalq bilan armiya mustahkamligi harbiy soha rivojiga yangicha kuch va sifat bag'ishlamoqda.

Senatdagi milliy armiyamizning yurtimiz tinchligi, mustaqilligi va xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni hamda zamonaviy xavf-xatarlar sharoitida oliy qonun chiqaruvchi organing huquqiy asoslarini takomillashtirish borasidagi mas'uliyatini ham alohida qayd etdi.

Shuningdek, halok bo'lgan harbiy xizmatchilar xotirasiga va Ikkinchi jahon urushi yillarida fashizmga qarshi kurashishda qatnashgan vatandoshlarimizning o'lmas jasoratiga chuqur hurmat-ehtirom ko'rsatildi.

“Xalq so'zi”.



Taraqqiyot odimlari

YANGI TOSHKENT

MUHTASHAM, INNOVATSION, “YASHIL” SHAHAR BO'LADI

Davlatimiz rahbari bundan to'qqiz yil muqaddam “Yangi O'zbekistonni albatta birgalikda bunyod etamiz” deganida, ko'pchilik buning mohiyatini, ko'lamin to'la anglamagan bo'lsa-da, qalblari yorishib, hayoti, turmush tarzi, orzulari ro'yobida yangi imkoniyatlar, qulay shart-sharoitlar yaratilishini kutgani rost.

O'tgan yillar shuni ko'rsatdiki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yangi davlat va jamiyat qurilishi haqida gapirganda nafaqat surat, balki siyrat yangilanishlarini nazarda tutgan. Buni inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlat bunyod etish, xalqimizning turmushi to'kisligini ta'minlash, jahon maydonida o'z o'rniga ega bo'lish, odamlar tafakkurini yangilash, umuman, barcha jabhada olib borilayotgan tub o'zgarishlar yaqqol ko'rsatib turibdi.

Bugun yurtdoshlarimiz miqyosi va shiddati jihatidan misli ko'rilmagan bunyodkorliklar

ichra yashamoqda. Ota-bobalarimizning asrly orzu-maslasi – amin-erkin, obod va farovon davlatni barpo etishdek ulug' niyat ro'yobiga hissa qo'shishga intilmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan Yangi Toshkent loyihasi ana shunday maqsad-muddaolarning amaliy ifodasi sifatida hayotga ko'chmoqda.

Bir necha muammolarga kompleks yechim

Davlat taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida gap ketar ekan, bu muhim jarayon kundalik ehtiyojlarga yechim topish bilangina hal bo'lmasligi kundek ravshan. Har bir

masalaga innovatsion yondashuv, aqli kelajakni shakllantirish tarixiy evrilishlarning bosh omiliga aylanishi kerak. Bugungi O'zbekiston ana shunday tamoyil asosida qadam tashlamogda. Bu, avvalo, poytaxt Toshkentning tubdan yangilanishi va transformatsiyasida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Toshkent faqat poytaxt emas, u mamlakatimizning yuragi, iqtisodiy, demografik va intellektual salohiyat jamlangan, g'oyalar va inson kapitali shakllanadigan strategik markazdir. So'nggi yillarda shahar aholisining keskin o'sishi, ijtimoiy infratuzilmaning o'zgarishi va urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi Toshkent oldiga yangi talab va vazifalarni ham qo'ymoqda. Shahar o'tmish merosini saqlagan holda, kelajakka intiluvchi jozibali manzilga aylanib boryapti.

Shu o'rinda haqli savol tug'iladi: ertangi

Toshkent qanday bo'lishi kerak? Bu savolga Yangi Toshkent loyihasi munosib javobdir. Bu ulkan loyiha davlatimizning shaharsozlik siyosatida mutlaqo yangi yondashuvni namoyon etmoqda. Albatta, bu uzoqni ko'zlab, puxta o'ylangan, kelajakni oldindan rejalashtirishga asoslangan strategik qarordir. Eng muhimi, Yangi Toshkent g'oyasining markazida inson manfaatini turadi. “Shahar inson uchun” degan tamoyil bu loyihaning asosiy falsafasi hisoblanadi. Rejalashtirish, transport tizimi, ekologiya, ijtimoiy infratuzilma – barchasi inson uchun qulay, xavfsiz va sifatli hayot muhitini yaratishga xizmat qiladi. Bu yerda qulaylikka imtiyoz emas, balki umumiy standart sifatida qaraladi.

Loyihaning davlatimiz rahbari tomonidan shaxsan nazorat qilinishi va doimiy e'tibor markazida ekanini alohida ahamiyatga ega.



14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni

MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI

Vatan himoyasi – bu sharaflilik va mas'uliyatli burch. Ajdodlarimiz asrlar davomida yurt ozodligi yo'lida kurashib, jasorat va fidoyilikning yorqin namunasini ko'rsatgan. Bugungi kunda esa ularning munosib davomchilari bo'lgan harbiylarimiz zamonaviy bilim va texnika bilan qurollanib, mamlakatimiz xavfsizligini ta'minlamogda.



Har bir davlatning mustaqil va mustahkam bo'lishiga xizmat qiladigan omillar ichida harbiylarning, xususan, armiyaning o'rni beqiyos. Shu bois so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi armiyamiz doimiy ravishda islohot etilib, zamon talablariga mos ravishda rivojlantirilyapti. Harbiy xizmatchilarimizning jismoniy va ma'naviy tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratilib, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ustuvor vazifaga aylangan. Bu esa kelajakda Vatanimiz yanada mustahkam va qudratli bo'lishining garovidir.

Bu o'zgarishlar Qurolli Kuchlarimizni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, ularning jangovar shayligini oshirish hamda mustaqilligimiz va hududiy yaxlitligimizni ishonchli himoya qilishga qaratilgani

bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

O'tgan davr mobaynida jangovar tayyorgarlik dasturlari zamonaviy talablar asosida ishlab chiqilib, 11 ta modulli tizim joriy etildi. O'ndan ortiq zamonaviy jangovar harakat usullari tayyorlandi hamda o'quv dasturlariga Kuchlar Akademiyasi isloh qilinib, uning negizida O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tashkil etildi.

Ona zaminimiz keyingi ming yillikda ikki Renessansning beshigi bo'lganligi bejiz emas. Chunki ota-bobalarimiz har bir sohaning rivojida ilmning qudratiga tayangan. Ana shu bois tibbiyotdan tortib falakiyotgacha, aniq fanlardan tortib harbiy sohalargacha dunyoga o'rnak bo'lganimiz ayni haqiqat. Bugungi kunda yurtimizda Qurolli Kuchlar salohiyatini oshirishda ham

harbiylarning ilmu ma'rifatiga e'tibor qaratilayotgani muvaffaqiyatlar asosi bo'lmoqda.

Ushbu universitetning tashkil etilgani esa ana shu strategik qadamning amaliy ifodasi bo'ldi.

Mazkur oliy o'quv dargohi 5 ta institut, 4 ta fakultet, 6 ta okrug o'quv fakulteti, 19 ta o'quv markazi, Serjantlar tayyorlash oliy maktabi hamda aviatsiya va uchuvchisiz uchish apparatlarini mutaxassislarini tayyorlash markazlarini o'z ichiga oladi. Bu keng qamrovli tuzilma turli darajadagi mutaxassislarning sifatli, tizimli va uzluksiz tayyorlanishini ta'minlaydi.

Ta'kidlash lozimki, harbiy ta'lim mazmuni qayta ko'rib chiqilib, kafedralar soni 59 dan 47 taga qisqartirildi. Bu qaror resurslarini oqilona taqsimlash, ta'lim sifatini oshirish va yo'nalishlarni qayta shakllantirishga xizmat qilmoqda. Sohada 50/50 dual ta'lim tizimi joriy etildi. Shuningdek, 7 bosqichli uzluksiz tayyorlash va o'qitish tizimi, “2+2” modelida tor doiradagi mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish hamda bitiruvchilarga fuqarolik va harbiy kasbga mo'ljallangan diplom berish amaliyoti kadrlar tayyorlash samaradorligini yanada oshirdi.

Milliy kadrlarning xorijda malakasini oshirish ham ustuvor vazifaga aylangan. Shu bois O'zbekiston harbiy xizmatchilari o'ndan ortiq mamlakatlardagi nufuzli harbiy ta'lim muassasalarida tajriba orttirib, zamonaviy urush taktikasi, boshqaruv va komandirlik mahorati, sohaviy bilimlar va harbiy diplomatiya ko'nikmalarini boyitmoqda. Va bu sa'y-harakatlar mamlakatimizda harbiy mutaxassislarni zamonaviy va strategik fikrlay oladigan kadrlar bo'lib yetishishida muhim omil bo'lmoqda.



Ochiq parlament



Sarhisob va rejalar:

ASOSIY MAQSAD – AHOLIMIZ MANFAATLARIGA XIZMAT QILISH

Yanvar oyida Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalarini hamda qo'mitalar tomonidan 2025-yil sarhisobi hamda joriy yildagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan yangi interfaol va kreativ formatdagi ochiq muloqotlar o'tkazilmoqda.

Ular Prezidentimizning 2024-yil noyabr oyida Oliy Majlis palatalarida so'zlagan nutqi va Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash yig'ilishida belgilangan vazifalar, parlament va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan kelib chiqib amalga oshiriladigan ishlar, shuningdek, fraksiya a'zolari tashabbusi bilan qabul qilingan xalqchil qonunlarning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilayotir.

Qonunchilik palatasidagi Tadbirkorlar va ishbilamonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi tomonidan tashkil etilgan ochiq muloqotda ham fraksiyaning 2025-yildagi faoliyati yuzasidan jurnalistlarga axborot berildi.

Ta'kidlanganidek, o'tgan yilda fraksiya davlat rahbarining Qonunchilik palatasi majlislaridagi nutqlari hamda saylovoldi dasturida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda elektorat manfaatlarini himoya qilish, tadbirkorlar huquqlarini ta'minlash, ishbilamonlik va investitsiya muhitini yanada yaxshilash, iqtisodiy sohadagi islohotlarni qo'llab-quvvatlash hamda sohaning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirishga ustuvor ahamiyat qaratdi.

O'tgan yili O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi hamda “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi birgalikda “Taraqqiyot bloki”ni tuzdi. Parlamentdagi ko'pchilikni tashkil etgan ushbu blok fraksiyalar o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi.

“Taraqqiyot bloki”ning tashkil etilishi qonun ijodkorligi jarayonlarida o'zaro muvofiqlashuvni kuchaytirish, iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlovchi qonun loyihalarini tizimli ilgari surish, tadbirkorlik, xususiy mulk, investitsiya, raqobat muhitini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarni birlashtirish imkonini berdi.

Mazkur blok doirasida fraksiyalar o'rtasida doimiy maslahatlashuv mexanizmi yo'lga qo'yilib, qonun loyihalarini ishlab chiqish, ularni takomillashtirish hamda parlament nazorati tadbirlarini amalga oshirishda o'zaro hamijahatlik ta'minlanmoqda. Bu esa partiyalarning dasturiy maqsad va vazifalarini samarali amalga oshirishga xizmat qilyapti.



MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI

◀ Xalqimiz mard va jasur harbiylarimiz timsolida Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Bobur Mirzo singari buyuk ajdodlarimizning shonli anʼanalarini munosib davom ettirib kelayotgan ona yurtimizning chinakam qalqonlarini koʻradi.

Biz yurtimiz tarixidagi ulugʻ va sharaflı sana – Vatan himoyachilari kuni, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganining 34 yilligini nishonlamoqueadamiz.

34 yil – bu shunchaki raqam emas. Bu – mustaqil davlatimiz xavfsizligi, tinchligi va barqarorligini taʼminlab kelayotgan milliy armiyamizning shonli yoʻli, sinovlar va gʻalabalarga boy tarixi demak. Qurolli Kuchlarimiz qisqa vaqt ichida jahon andozalariga mos, kuchli va zamonaviy armiyaga aylandi.

Aytish lozimki, bugun dunyoda kechayotgan siyosiy, harbiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar jahon hamjamiyati oldiga muftlaqo yangi xavf va tahdidlarni olib chiqmoqda. Geosiyosiy qarama-qarshiliklarning kuchayishi, mintaqaviy nizolar, terrorizm, ekstremizm, kibervavfsizlikka tahdidlar, axborot urushi va transmilliy jinoyatchilik kabi omillar har bir davlatdan milliy xavfsizlikni taʼminlashda chuqur oʻylangan, tizimli va huquqiy asoslangan yondashuvni talab etmoqda.

Shunday murakkab sharoitda Oʻzbekiston Respublikasi milliy xavfsizligi va davlat manfaatlarini ishonchli himoya qilishda qonun chiqaruvchi organ – parlamentning oʻrni va masʼuliyati ham beqiyos. Zotan, mamlakatimiz xavfsizligi va manfaatlarini ishonchli taʼminlash parlament vakillari zimmasiga ham ulkan masʼuliyatni yuklamoqueadamiz. Zamonaviy, puxta ishlab chiqilgan qonunlar, samarali parlament nazorati va strategik fikrlashga asoslangan qonun ijodkorligi – Oʻzbekistonning tinchligi, barqarorligi va mustaqil taraqqiyotining mustahkam kafolati.

Keyingi yillarda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qoʻmondoni Shvafat Mirziyoyev rahbarligida mamlakat mudofaa salohiyatini mustahkamlash, armiyaning jamiyat bilan uzviy bogʻliqligini taʼminlash borasida keng koʻlamli islohotlarga amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning asosiy mafkuraviy poydevori sifatida “Xalq va armiya – bir tanu bir jondir” degan ezuq gʻoya ilgari surildi.

Mazkur tamoyil mamlakatimizda yangi

davr harbiy siyosati, harbiy xizmatga boʻlgan munosabat va armiyaning jamiyatdagi oʻmini tubdan oʻzgartirishga xizmat qilmoqda.

Bu borada, ayniqsa, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yoʻlida olib borilayotgan ishlar muhim ahamiyatga ega. Vatanni himoya qilish, uni koʻz qorachigʻidek asrab-avaylash har bir yurt farzandining muqaddas burchidir. Zero, Vatan himoyachilari kuni nafaqat harbiy xizmatchilar, balki ayni vaqtda armiya saflarida oʻz burchini oʻtab qaytgan yurtdoshlarimiz va erta-indin xizmatga boradigan ming-minglab navqiron yigitlarning ham bayramidir.

Vatan – tugʻilib oʻsgan, kindik qonimiz toʻkilgan zamin. Bu esa uning haqiqiy farzandlari uni koʻz qorachigʻidek asrab, tinchligi va kelajagi uchun oʻz jonini berishga tayyor boʻlishi demak. Odam farzandi uchun ota-ona yakka-yagona boʻlgani kabi Vatan ham yagonadir.

Buyuk ajdodlarimiz yurt himoyasi yoʻlida shaʼni, or-nomusini oʻrtaga qoʻyib, yovga qarshi kurashganligini alohida taʼkidlashimiz zarur. Jumladan, buyuk davlat arbobi va sarkarda, sohibqiron Amir Temurning naqadar buyuk vatanparvar boʻlganligini tarix juda yaxshi biladi.

“Vatanning tinchligi va xalqning baxt-saodatini taʼminlash har bir insonning sharafigidir”. Amir Temurning bu soʻzlari Vatan himoyasi naqadar sharaflı burch ekanligini koʻrsatadi. Sohibqironning ona yurtiga boʻlgan sadoqati, oʻz xalqining tinchligi, mustaqilligi uchun qilgan saʼy-harakatlari yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun katta ibrat maktabidir.

Vatanni sevh va uning uchun jon fido qilish anʼanasi bizga ota-bobolarimizdan oʻtgan muqaddas merosdir. Shu maʼnoda, yurtimiz sarhadlari mardlik bilan qoʻriqlayotgan askarlarimiz uchun Ikkinchi jahon urushida fashizmga qarshi kurashda halok boʻlgan minglab vatandoshlarimizning soʻnmas xotiralari ibrat maktabidir. Ularning ruhi poklarga hurmat bajo keltirish biz uchun ham qarz, ham farzdir.

Taʼkidlash joizki, Yangi Oʻzbekistonda Ikkinchi jahon urushi yillarida jasorat va matonat, mehru oliyanoblik hamda insoniylikning yuksak namunasini koʻrsatgan xalqimizning Buyuk gʻalabaga qoʻshgan munosib hisssasi bilan bogʻliq muqaddas xotirani saqlab qolish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.



Prezidentimiz tashabbusi bilan Ikkinchi jahon urushi yillaridagi tariximizni oʻrganishda tom maʼnoda yangi davr boshlandi. Masalan, ilgari, toʻgʻrirogʻi, 2020-yilga qadar urush boshlangan paytda yurtimiz aholisi 6 million 551 ming kishini tashkil etgan va ularning 1 million 500 mingga yaqini urushda qatnashgan deb hisoblanar edi. Holbuki, jahon arxivlari oʻrganilib, yangi topilgan maʼlumotlar tahlil qilinganda esa Oʻzbekistondan 1 million 951 mingga yaqin kishilar urushga safarbar etilgani aniqlandi.

Bundan tashqari, olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida orden va medallar bilan mukofotlangan Oʻzbekiston vakillarining soni boʻyicha ham oydinlik kiritildi. Ilgari bu koʻrsatkich 120 ming deb qayd etilgan boʻlsa, yangi maʼlumotlarga asosan esa Ikkinchi jahon urushida 200 mingdan ziyod askar va ofitserlarimiz jangovar davlat mukofotlari bilan taqdirlangan. Jumladan, ilgari 280 nafar deb hisoblab kelingan oʻzbekistonlik Sovet Ittifoqi Qahramonlarining soni 301 ta ekani, 70 nafar yurtdoshimiz uchala darajadagi “Slava” ordeniga sazovor boʻlgani oʻz tasdigʻini topdi.

Albatta, bu raqamlar shunchaki statistik maʼlumotlar emas. Ularning ortida minglab insonlarning muqaddas nomi, mangu jasorati turibdi. Bu raqamlar boshimizdan kechirgan mudhish urush oqibatlarini hech qachon unutmaslikka, shu bilan birga, bugungi tinch va osuda hayotning qadriga yetib, doimo hushyor va ogoh boʻlishga, yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga chaqiradi.

Bugungi qudratli armiyani barpo etishda ming-minglab fidoyi insonlarning ulkan xizmatlari bor. Shu bois har yili Prezidentimiz tashabbusi bilan Qurolli Kuchlarning jangovar tayyorgarligini oshirishdagi xizmatlari, milliy manfaatlarimizni himoya qilish va tinchlikni taʼminlash, jamoat tartibini mustahkamlash yoʻlida mardlik, jasorat va fidoyilik

koʻrsatgan harbiylarimiz davlatimizning oliy mukofotlari, orden va medallari bilan taqdirlanib kelmoqueadamiz.

Bularning barchasi Yangi Oʻzbekistonda xalq jasoratiga koʻrsatilayotgan yuksak ehtirom namunasidir. Zero, tarixiy xotira barchamizni oʻtmishdan toʻgʻri xulosa chiqarib, doimo hushyor va ogoh boʻlish, ajdodlarimizdan ibrat olib yashashga daʼvat etadi.

Oʻz navbatida, bugungi yorugʻ kunlar, tinch, osuda hayotimizni taʼminlash uchun bukilmas iroda va jasorat namunasini koʻrsatib, jonlarini fido qilgan mard va jasur oʻgʻlonlarimizning matonatini ham aslo unutmaymiz.

Jumladan, mamlakatimiz mustaqilligining ilk yillaridagi Fargʻona, Boʻka va Parkent voqealarida tashqi kuchlar qoʻzgʻatgan nizolar, 1999-yilgi Toshkent portlashlari hamda 2000-yil Sariosiyo va Uzun togʻlaridagi shiddatli

bergan qahramonlarning nomi hamisha barhayotligi, ularning ota-onalari, turmush oʻrtoqlari va farzandlari doimiy eʼtiborda ekanining yorqin ifodasidir.

2000-yil 17-avgust kuni Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qoʻshinlari harbiy xizmatchisi, katta leytenant Shuhratbek Sobirov mamlakatimizga suqilib kirgan jangarilar toʻdasiga qarshi olib borilgan jang vaqtda qahramonlarcha halok boʻldi.

“Ot izini toʻy bosar” deganlaridek, bugungi kunda Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qoʻshinlarida xizmat qilayotgan Shohjahon Sobirov otasi tahsil olgan Chirchiq oliy tank qoʻmondonlik-muhandislik bilim yurtining havo desant qoʻshinlari taktik qoʻmondonligi fakultetida 2017 – 2021-yillarda sohaning sir-asrorlarini oʻrgandi. 2021-yilda “leytenant” harbiy unvonini olgach Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qoʻshinlarida aynan otasi Shuhratbek Sobirov xizmat qilgan

“ Biz yurtimiz tarixidagi ulugʻ va sharaflı sana – Vatan himoyachilari kuni, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganining 34 yilligini nishonlamoqueadamiz. 34 yil – bu shunchaki raqam emas. Bu – mustaqil davlatimiz xavfsizligi, tinchligi va barqarorligini taʼminlab kelayotgan milliy armiyamizning shonli yoʻli, sinovlar va gʻalabalarga boy tarixi demak. Qurolli Kuchlarimiz qisqa vaqt ichida jahon andozalariga mos, kuchli va zamonaviy armiyaga aylandi.

janglar davlat yaxlitligini himoya qilishda ogʻir sinov boʻldi.

Ushbu tahlikali yillarda Qurolli Kuchlarimizning mard ofitser va askarlari dushman oʻqiga koʻkragini qalqon qilib, oʻz qasamyodiga sodiq qoldilar. Jang maydonlarida yuzlab oʻgʻlonlarimiz qahramonlarcha halok boʻldi. Ularning nomi “Xotira kitoblari”da, jasorati esa davlatchiligimiz tarixida mangu yashaydi.

Davlatimiz rahbari – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qoʻmondoni tomonidan Vatan himoyasi, el-yurtimiz tinchligi yoʻlida mardlarcha halok boʻlgan harbiy xizmatchilar va xodimlar oila aʼzolari hamda ularning qaramogʻidagi shaxslarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, gʻamxoʻrlik, hurmat-ehtirom koʻrsatish maqsadida bir qator imtiyoz va kafolatlari berilmoqda. Bu esa Vatan tinchligi, yurt osoyishtaligi yoʻlida jon

Boʻstonliq tumanidagi harbiy qismda guruh komandiri lavozimida oʻz xizmat faoliyatini boshladi va ayni kunlarda ham shu sohada.

Shunday qahramonlarimizdan yana biri – harbiy uchuvchi, mayor Abdikarim Hamroyev. U mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash yoʻlida koʻrsatgan jasoratlari uchun 1995-yilda “Jasorat” medali, 1999-yilda “Shon-sharaf” ordeni bilan taqdirlangan.

Ming afsuski, 2000-yilda xizmat burchini bajarish vaqtda aviahalokat oqibatida qurbon boʻldi. Uning farzandi Anvar Hamroyev ham ota kasbini davom ettirib, bugungi kunda Vatanimiz tinchligi yoʻlida xizmat olib bormoqueadamiz.

Xalqimizning asl oʻgʻlonlariga xos fazilatlari ulugʻlanadigan mana shu unutilmas lahzalarda Vatan oldidagi burchini bajarish chogʻida qahramonlarcha halok boʻlgan botir jangchilarimizni yod

etib, ularning oʻlmas xotirasi oldida taʼzim qilamiz.

Bugungi kunda harbiy xizmatchilarimizning professional mahorati va obroʻ-eʼtibori jahon miqyosida ham yuksalib borayotir. Buni mamlakatimiz Qurolli Kuchlari vakillarining nufuzli xalqaro harbiy musobaqalarda faol ishtirok etib, faxrli oʻrinlarni egallab kelayotgani misolida yaqqol koʻrish mumkin.

Jumladan, Amerikaning Missisipi shtatida boʻlib oʻtgan “Eng ilgʻor jangchi” musobaqasida harbiy xizmatchilarimiz yuqori kasbiy mahoratlarini namoyish etdi va faxrli birinchi oʻrinni egallashdi.

Pokiston Islom Respublikasida boʻlib oʻtgan VI xalqaro “Jamao ruhi” musobaqasida 11 ta davlat jamoalari oʻrtasida hamda Janubiy Koreyada oʻtkazilgan II “Xalqaro merganlar” hamda “Xalqaro ilmiy-jangovar tayyorgarlik” musobaqalarida Oʻzbekiston Mudofaa vazirligi terma jamoasi oʻnta davlatning 54 ta jamoasi orasida birinchi oʻrinni qoʻlga kiritdi. Shuningdek, Turkiyada boʻlib oʻtgan “Eng ilgʻor mergan jamoa” musobaqasida 11 davlatning 36 ta jamoasi ichida Oʻzbekiston Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari faxrli 1-oʻrinni qoʻlga kiritish bilan birga bir nechta shartlarda 5 marotaba rekord natijani ham yangilashdi.

Bu yutuqlar harbiy xizmatchilarimizning shaxsiy mahoratlari oshayotganinigina emas, balki Qurolli Kuchlarimizning har qanday sinovlarga tayyor ekanini, Vatan tinchligi va xalq osoyishtaligini ishonchli himoya qilishga qodirligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Eng muhimi, xalqaro maydonda qoʻlga kiritilayotgan gʻalabalar yosh avlodda Vatanga muhabbat, harbiy kasbga hurmat va faxr tuygʻusini shakllantirmoqueadamiz. Buyuk Amir Temur bobomiz aytganidek, gʻalaba taqdirini, avvalo, qoʻshinning jangovar ruhi va tayyorgarligi, maʼnaviy qudrati va mustahkam irodasi hal qiladi. Shu bois milliy armiyamizning chinakam kuch-qudratini belgilab beradigan qoʻrqqmas va dovyurak harbiylarimiz qalbida jangovar ruhi oshirish, ularni har qanday qiyinchilik va sinovga chidamli va matonatli etib tarbiyalash doimo eʼtiborimiz markazida boʻlishi lozim.

Vatan himoyachilari kuni – nafaqat harbiylar, balki butun xalqimiz uchun faxr-iftixor bayrami. Chunki tinch hayot, osoyishta kunlar va porloq kelajak aynan Vatan himoyachilarining fidokorona mehnati evaziga taʼminlanadi.

Qutbiddin BURHONOV,
Oliy Majlis Senatining
Mudofaa va xavfsizlik masalalari
qoʻmitasi raisi.

DEPUTATLAR DOLZARB MASALALARGA EʼTIBOR QARATDI

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining kecha boʻlib oʻtgan yigʻilishlarida quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan masalalar koʻrib chiqildi. Deputatlar muhokamalar chogʻida qonun loyihalarining ahamiyati, konseptual jihatlariga eʼtibor qaratib, ularni oʻz partiya maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda yanada takomillashtirishga oid muhim takliflarini bildirdi.

Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – Oʻzbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida “Samarqand viloyatining Samarqand tumanini tugatish, Oqdaryo, Pastdargʻom, Toyloq tumanlari va Samarqand shahri chegaralarini oʻzgartirish toʻgʻrisida”gi Qonunchilik palatasi qarori loyihasi koʻrib chiqildi.

Samarqandni “Millionli shahar”ga aylantirish, zamonaviy arxitektura yechimlariga ega turarjoy va noturarbinolarni qurish, aholining uy-joylarga boʻlgan talabini toʻla qondirish, hududlarni infratuzilma bilan taʼminlash orqali aholiga munosib yashash sharoitini yaratish maqsadida Samarqand tumani alohida maʼmuriy-hududiy birlik sifatida tugatilmoqda.

Diyor HUSANOV, oʻzLiDeP fraksiyasi aʼzosi:
– *Chegaralar oʻzgartirilishi hisobiga Samarqand shahri hududi 11,8 ming gektardan 28,9 ming gektargacha kengayib, yangi investitsiya va qurilish loyihalari uchun keng imkoniyatlar yaratilayotgani eʼtiborga molik. Yaʼni yangi turistik loyihalar, oʻyin maydonlari, akvapark, havo sharlari, istirohat bogʻlari kabi koʻngilochar turizm va dam olish maskanlari tashkil etiladi, yangi yashil hududlar va xizmat koʻrsatish obyektlari hamda logistika markazlari quriladi.*



Yigʻilishda, shuningdek, yurimtayyor zargarlik buyumlarini Oʻzbekiston Respublikasi boxona hududidan tashqariga olib chiqish tartibini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ham muhokama qilindi. Asosiy elektorati tadbirkorlar boʻlgan fraksiya aʼzolari ushbu hujjatga alohida eʼtibor qaratdi.

Muhokama davomida deputatlar qonun loyihasining huquqiy asoslari, ijro mexanizmi hamda korruptsiyaviy omillarni bartaraf etish imkoniyatlari yuzasidan oʻz fikr va savollarini

bildirdi. Xususan, ayrim deputatlar qonunchilik hujjatlari oʻrtasidagi xronologik notumunosiblik va uning tadbirkorlar faoliyatiga taʼsiri masalalariga eʼtibor qaratdi.

Munozaralardan soʻng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida “Bino va inshootlarning zilzilabardoshligi va seysmik xavfsizligini nazorat qilishda davlat nazorati va boshqaruvining yanada takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi qizgʻin muhokama etildi.

Taʼkidlanganidek, seysmik xavfsizlikni taʼminlash sohasini doimiy takomillashtirib borish, mavjud va qurilayotgan bino hamda inshootlarning seysmik bardoshligini oshirish, zilzilalarni bashorat qilish va monitoringini olib borish, shuningdek, ularga tayyorgarlik koʻrishda davlat organlari va tegishli tashkilotlar oʻrtasida samarali hamkorlik muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu oʻrinda seysmik xavfsizlikni taʼminlash sohasiga zamonaviy ilmiy va texnik yondashuvlarni joriy etish, bino va inshootlarning zilzilabardoshligini yanada kuchaytirish zarurati mavjud. Ushbu qonun loyihasi bilan ayrim hujjatlarga seysmik xavfsizlikni taʼminlashga qaratilgan bino va inshootlarning zilzilabardoshligini yanada kuchaytirishni nazarda tutuvchi oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilmoqda.

Shuningdek, qonun loyihasida koʻp kvartirali uy-joylarni ruxsatsiz qurganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish nazarda tutilmoqda. Jumladan, Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga tegishli oʻzgartirishlar kiritilib, bunday huquqbuzarlik uchun maʼmuriy javobgarlik belgilanmoqda. Shuningdek, mazkur qoidabuzarlik takroran sodir etilgan taqdirda, jinoyi javobgarlik belgilash taklif qilinaypti.

Shahnoza JOLDASOVA, “Milliy tiklanish” DP fraksiyasi aʼzosi:
– *Loyiha bilan atroflicha tanishib chiqdik. Nima uchun faqat koʻp qavatli uy-joylar masalasi nazarda tutilayotgani eʼtirozimizga sabab boʻldi. Unda bir qavatli ijtimoiy obyektlar ham eʼtiborga olinishi zarur degan taklifim bor.*



Qizgʻin muhokamadan soʻng qonun loyihasi konseptual jihatdan qoʻllab-quvvatlandi.

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida aholiga tibbiy yordamning kafolatlangan hajmiga kiradigan xizmatlarni koʻrsatish, tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining kasbiy faoliyatini amalga oshirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi muhokama qilindi.

Mazkur qonun loyihasi bilan “Fuqarolar sogʻligʻini saqlash toʻgʻrisida”gi hamda “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati toʻgʻrisida”gi qonunlarga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida qoʻshimcha xizmatlar hisoblanadigan tibbiy yordam turlari belgilanishini, shuningdek, davlat roʻyxatidan oʻtkazilgan shaxslar tibbiyot va farmatsevtika faoliyati bilan shugʻullanish huquqini olishini nazarda tutuvchi oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilmoqda. Yaʼni birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida koʻrsatiladigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmidan ortiqcha tibbiy xizmatlar va boshqa xizmatlar qoʻshimcha xizmatlar boʻlib, ular pullik asosda amalga oshirilishi nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, sogʻliqni saqlashni boshqarishning innovatsion modelini joriy etish, tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini davlat roʻyxatiga olishning huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda.

Mavluda ADHAMJONOVA, “Adolat” SDP fraksiyasi aʼzosi:
– *Qonun loyihasida belgilanayotgan normalarni fraksiyamizda atroflicha muhokama qildik. Ularni yanada takomillashtirish boʻyicha taklif va tavsiyalar berdik. Albatta, qonun loyihasining qabul qilinishi aholining yuqori sifatli tibbiy xizmat olish huquqlarini samarali taʼminlashga, sogʻliqni saqlashni boshqarishning innovatsion modelini joriy etishga xizmat qiladi.*



Savol-javoblarga boy boʻlgan yigʻilishda qonun loyihasi qoʻllab-quvvatlandi.

Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida bino va inshootlarning zilzilabardoshligi hamda seysmik xavfsizligini taʼminlash sohasida davlat nazorati va boshqaruvin yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi qizgʻin bahs-munozaralarga sabab boʻldi. Deputatlar tomonidan bir qator taklif va mulohazalar bildirildi.

Anvarxon TEMIROV, oʻzXDP fraksiyasi aʼzosi:
– *Seysmik xavfsizlikni taʼminlashda javobgarlik zanjiri – loyihalash, ekspertiza, qurilish, qabul qilish va ekspluatatsiya bosqichlarida shaxsiy masʼuliyat aniq belgilab qoʻyilishi lozim. Shuningdek, tekshiruv natijalari, obyektlarning seysmik toifasi va ekspertiza xulosalari jamoatchilik uchun ochiq boʻlishi, sohada “qogʻozda qabul qilish” amaliyotiga barham beradigan raqamli nazorat va majburiy audit mexanizmlari joriy etilishi zarur.*



Yigʻilishda aholiga tibbiy yordamning kafolatlangan hajmiga kiradigan xizmatlar koʻrsatish, tibbiyot va farmatsevtika xodimlarning kasbiy faoliyatini amalga oshirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ham deputatlar eʼtibor markazida boʻldi. Ushbu loyiha yuzasidan partiyaning aniq pozitsiyasi bildirilib, qator takliflar ilgari surildi.

Qonun tashabbuskorlarining taʼkidlashicha, loyiha bilan birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida koʻrsatiladigan tibbiy xizmatlar turlarini aniq belgilash, shuningdek, tibbiyot va farmatsevtika faoliyati bilan shugʻullanish huquqini berish tartibini takomillashtirish koʻzda tutilmoqda.

Muhokama davomida sogʻliqni saqlash sohasini boshqarishning innovatsion modelini joriy etish, tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini davlat roʻyxatidan oʻtkazishning huquqiy asoslarini mustahkamlash masalalariga ham alohida eʼtibor qaratildi. Aytlganidek, tibbiyot yoki farmatsevtika faoliyati bilan shugʻullanish huquqi tegishli oliy yoki kasbiy taʼlim toʻgʻrisidagi diplomga ega boʻlgan va davlat roʻyxatidan oʻtkazilgan shaxslarga berilishi belgilanmoqda.

Shu bilan birga, deputatlar tibbiy maʼlumoti boʻlmagan shaxslarga litsenziya berish qanchalik

toʻgʻri deya tashabbuskorlarga yuzlanishdi. Qonun tashabbuskorlarining fikricha, amaldagi qonunchilikka muvofiq, xalq tabobati sohasida faoliyat yuritish maxsus tartib asosida, belgilangan talablar va litsenziyalash mexanizmlari doirasida amalga oshiriladi. Bu esa tibbiy xizmatlar xavfsizligi va sifatini taʼminlashga xizmat qiladi.

Yigʻilishda muhokama etilgan har bir qonun loyihasi atroflicha koʻrib chiqildi hamda tegishli qarorlar qabul qilindi.

Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida davlat xizmatlarini koʻrsatish tizimini yanada takomillashtirish, arxiv sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan qonun loyihasi koʻrib chiqildi. Taʼkidlanganidek, mazkur qonun loyihasida davlat xizmatlarini koʻrsatish tizimini yanada kengaytirish, davlat organlari va tashkilotlarida manfaatlar toʻqnashuvining oldini olish nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari, “Oʻzarxiv” agentligi tizimini optimallashtirish, arxivning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimining huquqiy asoslarini belgilash koʻzda tutilaypti.

Loyiha bilan litsenziya yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olish tartibi ham soddalashtirilib, 3 oygacha oʻtish va moslashish davrini belgilaydigan “Biznesga litsenziyasiz kirish” maxsus rejimini joriy qilish aks etmoqda.

Fraksiya yigʻilishida qonun loyihasida belgilanayotgan qonun qizgʻin muhokama qilindi.

Javlon ABDULLAYEV, Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi aʼzosi:
– *Mazkur qonun loyihasi orqali amalda mavjud ayrim huquqiy boʻshliqlarni bartaraf etish, qator qonun hujjatlarini oʻzaro uygʻun va tizimli ravishda takomillashtirish nazarda tutilmoqda. Muhokamalar jarayonida qonun loyihasi tashabbuskorlariga aniqlashtiruvchi savollar berilib, uning matnini yanada takomillashtirish yuzasidan bir qator takliflar bildirildi. Oʻylaymanki, qonun loyihasining qabul qilinishi davlat xizmatida manfaatlar toʻqnashuvining oldini olish, arxiv sharoiti raqamlashtirish uchun qulay huquqiy muhit yaratishga yoʻl ochadi.*



Yigʻilishda qonun loyihasi fraksiya aʼzolari tomonidan qoʻllab-quvvatlandi.

“Xalq soʻzi”.



Sarhisob va rejalar:

ASOSIY MAQSAD – AHOLIMIZ MANFAATLARIGA XIZMAT QILISH

◀1 – Hisobot yilida fraksiya a'zolarining tashabbusi bilan qonun ijodkorligi yo'nalishida 2 ta qonun loyihasi ishlab chiqilib, Qonunchilik palatasiga kiritildi. Shuningdek, fraksiya a'zolari boshqa fraksiyalar bilan hamkorlikda 14 ta qonun loyihasini ishlab chiqishda ham tashabbuskor bo'ldi, – dedi fraksiya rahbari Aktam Haitov.

Ushbu qonun loyihalarida fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimida institutsional yaxlitlikni ta'minlash, noshirlik faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish, mehnat munosabatlari zamonaviy talablar asosida tartibga solish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan muhim normalar nazarda tutilgan.

Ochiq muloqotda fraksiyaning 2026-yilga mo'ljallangan rejalari haqida ham atroflicha axborot berildi.



Abdullo ASLONOV,
O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi:
– Prezidentimiz Oliy Majlis palatalarida so'zlagan nutqida siyosiy partiyalarning saylovoldi dasturlarida bayon qilingan qator tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaganini va siyosiy partiyalar fraksiyalari bu tashabbuslarni birinchi galdagi vazifalar sifatida belgilab, ularning o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlashi zarurligini qayd etgan edi.

Mazkur nutqlar parlament a'zolariga taqdim qilingan juda boy va qimmatli dasturiy hujjat bo'ldi hamda fraksiyalar va Qonunchilik palatasi ishi bilan bog'liq dasturlarning dolzarbligini, shuningdek, quyil palata faoliyati samaradorligini oshirishga yordam berdi.

Hozirda davlatimiz rahbari ilgari surgan g'oyalarni hayotga izchil tatbiq etilmoqda. Siyosiy partiyalar fraksiyalari va deputatlar faolligi oshib, parlament nazorati tobora ta'sirchan bo'lib boryapti. Xususan, ko'rib chiqilgan yilda O'zLiDeP fraksiyasi tomonidan iqtisodiy sohadagi islohotlar ijrosi, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, investitsiya muhitini yaxshilash masalalari yuzasidan parlament nazoratiga alohida e'tibor qaratildi.

Jumladan, fraksiya a'zolarining joylardagi o'rganishlari natijasida jami 10 ta parlament nazorati tadbiri amalga oshirildi. Fraksiya tashabbusi bilan 2 ta parlament eshituvi o'tkazildi. Shuningdek, fraksiya taklifiga asosan 2 marotaba "Hukumat soati" tashkil etildi. Fraksiya tomonidan mansabdor shaxslarga 6 ta parlament so'rovi, shuningdek, saylovchilar murojaatlari asosida 36 ta deputat so'rovi yuborildi.

Shahnoza XOLMAHAMATOVA,
O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi:

– Mamlakatimiz rahbari "Deputat – bu xalq xizmatchisi, barchaga o'rnak bo'ladigan, siyosiy bilim va ongi yuksak, o'z Vatanini chin dildan sevadigan insondir" deb alohida ta'kidlagan edi.

O'tgan davrda O'zLiDeP fraksiyasi aholi bilan doimiy muloqot qilish uchun barcha tashkiliy chora-tadbirlarni ko'rdi. Deputatlarning saylovchilar bilan yuzma-yuz muloqoti izchil davom ettirilib, hisobot davrida jami 2 786 ta uchrashuv o'tkazildi.

Shu bilan birga, 7 152 ta aholi xonadoni, 3 405 ta tadbirkorlik subyekti hamda 2 625 ta ijtimoiy soha obyekti tashriflar amalga oshirildi. Ushbu o'rganishlar davomida aniqlangan masalalar fraksiya majlislarida muhokama qilinib, tegishli vazirlik va idoralarga takliflar kiritildi.

Fraksiyamiz tomonidan partiya maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, aniq yo'nalishlarni belgilab olgan holda joylarda ham o'rganishlar olib borildi. Xususan, qishloq xo'jaligi va tadbirkorlikni rivojlantirish, fermerlik va klasterlar faoliyatini takomillashtirish, aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash va boshqa xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq muammolar tahlil qilindi.



Gulshana XUDOYOROVA,
O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi:
– Prezidentimizning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash yig'ilishida so'zlagan nutqida belgilangan vazifalar doirasida fraksiyamiz tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar belgilab olindi.

O'tgan davrda korrupsiyaga qarshi kurashishda parlamentning rolini kuchaytirishga qaratilgan samarali chora-tadbirlar doirasida fraksiyamiz tomonidan muayyan ishlar amalga oshirildi. Xususan, ushbu sohada qat'iy parlament nazoratini yo'lga qo'yishga, mavjud qonunchilikni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Shu bilan birga, bu borada keng jamoatchilik, partiyamiz elektorati vakillari tomonidan bildirilgan fikrlar va saylovchilardan kelib tushgan xalqchil takliflar asosida qonunlarni takomillashtirish bo'yicha aniq choralar ko'ridi.

Bundan tashqari, sohaga oid qonun loyihalarini aholi o'rtasida muhokama qilib, fuqarolarning asosli tavsiya hamda takliflari asosida ularning puxta va hayotiylikni ta'minlashga e'tibor qaratildi. Umuman, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish borasidagi huquqiy bo'shliqlarni to'ldirish masalasi ham e'tiborimizda bo'ldi.

Muhsinjon XOLMUHAMEDOV,
O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi:

– Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim siyosiy voqea bo'lib, unda 2025-yildagi asosiy ko'rsatkichlar, 2026-yilga mo'ljallangan aniq maqsad va vazifalar bayon etildi.

Murojaatnomada ilgari surilgan muhim g'oyalarni, tashabbuslarni hamda takliflar O'zLiDeP fraksiyasi va partiyamiz faollari tomonidan keng e'tirof etilib, qizg'in qo'llab-quvvatlandi. Ushbu masala Qonunchilik palatasidagi O'zLiDeP va "Milliy tiklanish" DP fraksiyalari a'zolaridan iborat "Taraqqiyot bloki" hamda siyosiy partiyalarning fraksiyalari majlislarida ham ko'rib chiqilib, undan kelib chiquvchi ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Hozirgi kunda saylov okruglaridagi uchrashuvlarimiz davomida Murojaatnomada ilgari surilgan taklif va tashabbuslarning mazmun-mohiyatini saylovchilarga yetkazish hamda bu borada keng tushuntirish ishlarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqdamiz. Shuningdek, ushbu muhim strategik hujjatda belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosini o'z vaqtida ta'minlash, ularning huquqiy asoslarini yaratishda faol ish olib boryapmiz.

“Xalq soʻzi”.

YANGI TOSHKENT

MUHTASHAM, INNOVATSION, “YASHIL” SHAHAR BO‘LADI



◀1 Prezidentimiz qurilish ishlari boshlangan 2023-yildan buyon bir necha bor mazkur hududga tashrif buyurib, ulkan va juda muhim loyihalarining barpo etilishi bilan yaqindan tanishdi.

Bu mazkur tashabbusning nafaqat ko'lamini, balki uning el-yurtimiz hayotida naqadar ustuvorligini ham ko'rsatadi. Davlatimiz rahbari shahar muhitining sifati, uning bevosita aholining turmush darajasi, odamlarning islohotlarga va kelajakka ishonchini oshirishga qaratilishi kerakligini doimo ta'kidlaydi. Va aytish mumkinki, Yangi Toshkent bir necha muammolarga strategik, kompleks yechim bera oladi.

Avvalo, yangi shahar demografik jihatdan yuz minglab aholini qabul qilishga tayyor bo'lgan, boshqaruvchan va muvozanatli zamonaviy hudud sifatida shakllanmoqda. Ikkinchidan, iqtisodiy nuqtayi nazaridan investitsiya, zamonaviy biznes va yuqori malakali

mutaxassislar uchun jozibali muhit yaratadi. Uchinchidan, ekologik yo'nalishga doir muhim masalalar, ya'ni yashil hududlar, energiya tejamkor texnologiyalar va "aqli" qurilishning ilg'or namunalari o'zida mujassam etadi.

Ham qiyofa, ham tafakkur yangilanishi

Aslida, gap yangi shahar hududi haqida emas, balki yangi shahar madaniyati va tafakkuri haqida ketmoqda. Yangi Toshkent Markaziy Osiyoda kelajakka yo'naltirilgan, dunyoga ochiq, shu bilan birga, milliy qadriyatlarga tayangan zamonaviy megapolis modeli hisoblanadi. Muhimi, u mantiqan alohida imtiyoz va e'tibor bilan chegaralab olingan loyiha emas, balki mamlakatimizda olib borilayotgan boshqaruvchan va muvozanatli zamonaviy hudud sifatida shakllanmoqda. Ikkinchidan, iqtisodiy nuqtayi nazaridan investitsiya, zamonaviy biznes va yuqori malakali

Yangi Toshkent xalqimizning yuksak bunyodkorlik salohiyatini dunyoga namoyon qiladigan muhtasham, innovatsion, "yashil" shahar bo'ladi. Bu yerda havo va suv tozaligi, muqobil energiya manbalari va "aqli" texnologiyalardan foydalanilishi, yashil hududlar hamda daraxtzorlar ko'pligi bois yashash uchun eng maqbul shart-sharoitlar yaratiladi.

Shaharda infratuzilma, turmush va ekologiya mutanosib bo'ladi. Masalan, ekologik transport tizimi joriy etiladi. Metro va elektrobuslar uyg'unlikda harakatlantiradi. Transportlar qatnovi uchun zamonaviy tunnellar, minglab avtomobillarga mo'ljallangan yer osti turargohlari quriladi. Piyodalar hamda velosipedchilarning to'siqsiz va xavfsiz harakatlanishi uchun keng qulaylik hozirlanadi.

Ayonki, tarixan poytaxtlar har doim davrning ko'zgusi bo'lib kelgan. Ular orqali davlatning strategik

tafakkuri, ustuvor yo'nalishlari va kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyati baholalanadi. Shu ma'noda, Yangi Toshkent mamlakatimizning uzoqni ko'zlaydigan, barqaror va mustahkam kelajakni barpo etishga yo'naltirilgan qat'iy siyosatini o'zida namoyon qiladi.

Yangi Toshkent hali qurilish jarayonida, ammo u allaqachon asosiy g'oya, ya'ni taraqqiyot, inson qadri va hayot sifati yo'lidagi tanlovni yaqqol ifoda etyapti. Mamlakatimizdagi bugungi tizimli islohotlar yillar o'tgach, Yangi Toshkent kabi yuzlab megaloyihalar orqali aholi hayotini o'zgartirgan va yorqin kelajakni barpo etishga yo'l ochgan hal qiluvchi ahamiyatga ega tashabbuslar sifatida tarix zarvaraqslarini bezaydi.

Sifat va qulaylik – bosh mezon

2025-yilning adog'ida, 30-dekabr kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Yangi Toshkentda olib borilayotgan bunyodkorliklar, jumladan, yo'l-transport infratuzilmasi, energetika, uy-joy, ta'lim va boshqa obyektlar qurilishining borishi bilan tanisharkan, mutasaddilarga amalga oshirilayotgan ishlar sifatiga jiddiy ahamiyat qaratish, ularning aholi uchun maksimal darajada qulay va zamonaviy talablarga mos bo'lishini ta'minlash, jarayonlarda ilm-fan yutuqlari, "yashil" tamoyillarga tayanish, loyihalarni belgilangan muddatlarda yakunlash bo'yicha topshiriqlar berdi.

Hozirgi kunda bo'lajak megapolisda dastlabki inshootlar mahobati ko'rinda boshladi. Ayni

paytda esa hududda yirik yer osti muhandislik tarmoqlari qurilmoqda. Bir va ikki seksiyali kollektorlar yotqizilib, issiqlik, suv, elektr energiyasi va telekommunikatsiya kabi barcha tarmoqlarning yer ostidan o'tkazilishi ta'minlanmoqda. Bu ishlarining barchasida sifat hamda inson uchun qulaylik yaratish bosh mezoniga aylangan.

Tashkil etilgan o'n kilometrik sohil bog'i, ekilgan bir million tup buta va ko'chat, yangidan qurilayotgan kanallar shaharda mikroqilimni ta'minlab, atrofga ko'rk bag'ishlaydi.

Hududda 60 dan ortiq davlat idoralari uchun zamonaviy ma'muriy binolar quriladi. Ayni vaqtda qator vazirlik va idoralar vaqtinchamajmualarda faoliyat boshlagan.

Bugun Yangi Toshkentda davlatimiz rahbari ko'rsatmalari asosida olib borilayotgan ishlar butun mamlakatimizda yuz berayotgan transformatsiya jarayonlarining yaqqol namunasi sifatida dunyo jamoatchiligi, investorlar, soha ekspert va mutaxassislari tomonidan keng e'tirof etilmoqda. Shu vaqtga qadar hududda auktsion orqali sotilgan 24 ta tijoriy lot bo'yicha 2 milliard dollarlik investitsiya shartnomalari imzolangan bo'lib, qiziqishning yana bir amaliy ifodasidir.

Barcha ekologik talablar hisobga olingan holda "yashil shahar" konsepsiyasi asosida qurilayotgan ushbu kent O'zbekistonning milliylik va zamonaviylik ufufur turgan marvaridi, xalqimiz mehn berigan va dunyo ahli havasini keltiradigan maftunkor go'shasi, jonajon Vatanimizning yuragi bo'lishiga ishonchimiz komil.

Fikrlar, tahlillar va talqinlar

Saidazim SHARIPOV,
Yangi Toshkent shahrini barpo etish direksiyasi direktori maslahatchisi:

– Toshkent 3,5 milliondan ziyod kishilar istiqomat qiladigan Markaziy Osiyodagi eng yirik shahar. Prognozlariga ko'ra, bu azim kentning aholisi kelgusida qariyb ikki barobar ko'payadi. Bu esa shahar infratuzilmasiga yuklamaning ortishini yuzaga keltirib, ekologik muvozanatga, yo'llardagi tirbandliklarga jiddiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Prezidentimizning Yangi Toshkent shahrini qurish tashabbusi poytaxtimizda kutilishi mumkin bo'lgan ana shu muammolarning oldini olish, aholiga keng qulayliklar yaratish, mamlakatimizning jahonda obro'-e'tibori hamda jozibadorligini oshirishga qaratilgan hamda ahamiyatli.

Mazkur shahar qurilishiga Yuqori Chirchik va O'rta Chirchik tumanlaridan jami 19 700 gektar yer maydoni ajratilgan. Ayni paytda bu yerda 100 dan ziyod katta-kichik loyihalar jadal olib borilmoqda. 2025-yilda yangi shaharda qurilish maydonlari 3 mln. kvadrat metrga yetdi. Bir qancha uy-joy massivlari qurilishi yakuniy bosqichga kirdi. Infratuzilma obyektlarida ishlar jadal ketmoqda.

Birinchi bosqichda 6 ming gektar hududda qurilish ishlari bajariladi. Natijada 600 ming aholi uchun zamonaviy infratuzilma barpo etilishi belgilangan. Loyiha to'liq yakunlanganda esa Yangi Toshkent 2 mln. nafar odam yashaydigan megapolisga aylanadi.

Ozan KARADEMIR,
Yangi Toshkent shahrini barpo etish direksiyasi direktori maslahatchisi (Turkiya):

– Yangi Toshkentning yuragida joylashgan "Sharq bahori" turarjoy majmuasi O'zbekistondagi shahar hayotini to'liq aks ettiruvchi bog'lari, tabiiy muhitni qo'llab-quvvatlovchi yechimlari bilan ajralib turadi. Shuningdek, loyiha "aqli" tizimlar, puxta infratuzilma asosida ishlab chiqilgan. Aynan shu jihatlarni alohida ta'kidlash lozim.

Loyiha doirasida 95 gektar hududda 15 mingga yaqin xonadondan iborat ko'p qavatli uylar quriladi. Ularning quyi qismida mingdan ortiq savdo va tijorat maydonlari joylashadi. Restoranolar, kafelar, do'konlar va kundalik hayot uchun zarur bo'lgan barcha xizmatlar shu loyihada jamlanadi. Shu bois bu yerda shahar ichida to'laqonli yana bir shahar barpo etilmoqda, desak, adashmaymiz. Eng muhimi, majmua ishbilarmolik markazlari, vazirliklar binolari, ta'lim muassasalariga juda yaqin joylashgani sababli odamlarning ish joyi va uylari o'rtasidagi, bolalarning maktabi va yashash joyi orasidagi masofa sezilarli darajada qisqaradi. Bu esa kundalik hayotdagi yuklamaning ancha yengillashtiradi. Bunday ulkan miqyosdagi loyihalar jahon tajribasida ham kamdan-kam amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, ishbilarmolik markazlari va xususiy binolarning Yangi Toshkent hududida bo'lishi odamlarni bu yerga jalb qiladi va loyihaning jozibasini yanada oshiradi.

Jo'rabek MIRZAMAHMUDOV,
O'zbekiston Respublikasi energetika vaziri:

– Yangi Toshkent eng zamonaviy texnologik yechimlar, energiya tejamkor texnologiyalarning qo'llanilishi namoyoni sifatida milliy shaharsozlik tajribasida alohida o'rinda ega. Bu yerda mamlakatimizdagi birinchi yopiq tizimdagi nimstansiya barpo etilmoqda. Va ayni paytda stansiyaning asosiy bino va inshootlari qurilishi jadal ketayotir.

Aytish joizki, loyiha doirasida talab qilinadigan asosiy asbob-uskunalar xalqaro energiya samaradorlik dastlabkiga to'la mos keladi. Nimstansiya quvvati Yangi Toshkentning dastlabki bosqichdagi ehtiyojlarini ta'minlaydi. Birinchi bosqichda issiqlik uchun 75 megavatt, sovitish tizimi uchun esa 100 megavatt quvvat yaratiladi. Shu bilan birga, 17 megavatt miqdorda qo'shimcha elektr energiyasi ham ishlab chiqariladi.

Loyiha Xitoyning "Haocheng Industry Group Limited" kompaniyasi ishtirokida davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilmoqda.

Bunday tipdagi inshootlar an'anaviy ochiq nimstansiyalarga nisbatan bir qator ustunliklarga ega. Avvalo, ular zamonaviy boshqaruv tizimiga ega. Shahar ichidagi muhitga mos loyihalarni va hudud arxitektura qiyofasini buzmasdan joylashtiriladi. Bunday nimstansiyalarning shovqin darajasi an'anaviylarga qaraganda ikki baravar past. Shuningdek, ochiq turdagi inshootlarga nisbatan bir barobar kam maydon talab qiladi. Bu Yangi Toshkent kabi murakkab muhandislik konsepsiyasiga ega shaharda juda katta afzalik. Tatbiq etiladigan trigeneratsiya texnologiyasi shaharni yozda markazlashgan sovitish va qishda isitish tizimi bilan ta'minlaydi. Ushbu zamonaviy yechim jarayonda an'anaviy quvvatlarga nisbatan ikki baravargacha kam energiya sarflaydi. Oddiy issiqlik markazlari yoki sovitish tizimlarida ishlab chiqarish jarayonlari alohida-alohida amalga oshiriladi. Trigeneratsiyada esa bularning barchasi yagona texnologik zanjir asosida birlashtiriladi.

Bahodir AHMEDOV,
"Yangi O'zbekiston" universiteti birinchi prorektori:

– Keyingi yillarda ta'lim davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda mamlakatimiz taraqqiyotining poydevorini yaratadigan tizim sifatida uni dunyo andozalariga mos tarzda rivojlantirishga alohida urg'u berilmoqda.

Prezidentimiz yaqinda parlamentga va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomada ham ayni yo'nalishga e'tibor qaratgani bejiz emas. Biz barcha sohada sifati yangi bosqichga olib chiqadigan ilg'or xorijiy tajribalarni keng joriy etish uchun yangi texnologiyalarni olib kirsak, kadrlarni ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan zamonaviy kasblarga tayyorlasak, kelgusi besh yilda iqtisodiyotimiz hajmini 240 mlrd. dollardan oshirishga barcha imkoniyatlarimiz bor.

Yangi Toshkent intellektual shahar bo'ladi. Bu yerda ko'plab ta'lim maskanlari, ma'naviy-

ma'rifiy muassasalar qatori "Yangi O'zbekiston" universiteti binolari ham qurilmoqda. Bu binolar majmuasining dastlabki qiymati 200 mln. dollar bo'lib, 50 gektar maydonni qamrab oladi. Qurilish ishlari "Ozguven" kompaniyasi tomonidan amalga oshirilmoqda. Majmua tarkibida 10 ming talabaga mo'ljallangan 5 ta fakultet, rektorat, ming o'rindan ortiq joyga ega kutubxona, muzey, ko'rgazmalar zali, multimedia xonalari barpo etiladi. Talabalar uchun ming o'rinni sport majmuasi va suzish havzasi, professor-o'qituvchilar va talabalarga mo'ljallangan 2 ming o'rinni yotoqxonalarda hamda oshxonalar quriladi.

Oliyog'ning asosiy binosiga dunyo va yurtimizning yetakchi kompaniyalari ofislarini ham joylashtirmoqchimiz. Talabalar nazariy bilimlarini olish bilan birga ushbu ofislarga kelib, amaliy ish jarayoni bilan tanishishi, real tadqiqotlar bilan shug'ullanishi mumkin bo'ladi. Demak, "Yangi O'zbekiston" universiteti shunchaki ta'lim muassasasi emas, balki yashaydigan, ishlaydigan va innovatsiya yaratadigan kampusga aylantiriladi.

Umida TESHABOYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi direktori:

– Yangi Toshkentdagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining yangi binosi xalqimizning ma'naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan ustuvor siyosatning amaliy ifodasidir. Prezidentimiz bu yerga tashrif buyurganida mazkur kutubxona jahon talablari asosida faoliyat yuritishi, tom ma'noda ma'naviyat, ma'rifat, ilm o'chog'i bo'lishi kerakligini ta'kidlagan edi. Buning uchun jahon tajribasini o'rganish kerakligiga urg'u bergandi. Davlatimiz rahbarining topshiriqlari asosida Yevropa mamlakatlari, Xitoy, Turkiyadagi nufuzli kutubxonalar faoliyatini o'rgandik.

Yangi binoda milliy me'morchilik an'analari va zamonaviy arxitektura yechimlari uyg'unlashtirilmoqda. Jahonning ilg'or tajribalari faoliyatimizga tatbiq etilishi bilan birga bu yerda sohaga doir eng zamonaviy texnologiyalar o'rnatiladi. Kutubxona fondidagi adabiyotlarni munosib saqlash, sanoqdan o'tkazish, xavfsizligini ta'minlash va sterilizatsiya qilishga mo'ljallangan maxsus asbob-uskunalar joylashtiriladi. Ziyo maskani bir vaqtning o'zida 1 420 nafar kitobxonga xizmat ko'rsata oladi. Majmua ko'p funksiyali bo'lib, xalqaro va milliy yirik kutubxonalarning elektron bazalariga onlayn ulanish imkoni yaratiladi. Ko'zi ojiz fuqarolar uchun maxsus o'qish va tadqiqot muhiti yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, tashrif buyuruvchilar uchun 300 o'rinni kafe, galereya, yengil sport o'yinlari maydonchalari va dam olish hududlari barpo qilinadi.

Kutubxona Yangi Toshkentning chin ma'noda ma'naviyat va ma'rifat markaziga aylanadi.

Maqsud ABBOSXONOV,
Yangi Toshkent shahrini barpo etish direksiyasi direktori o'rinbosari:

– Chirchik daryosi ustida yangi ko'priklar hamda metro bekatlari bilan birlashtirilgan avtoturargoh barpo etilmoqda. Poytaxt va Yangi Toshkent o'rtasida transport aloqalarini mustahkamlash, transport oqimini samarali boshqarish hamda

aholi uchun qulay harakat muhitini yaratishga qaratilgan mazkur loyiha shahar infratuzilmasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi ko'priklar bir kecha-kunduzda 40 – 50 mingta avtotransport vositasini o'tkazish quvvatiga ega bo'ladi. Qurilish ishlari o'tgan yil oxirida boshlangan bo'lib, ayni paytda kelib loyihaning dastlabki qismi amalga oshirilmoqda.

Loyiha doirasida atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'linadi. Sohil hududlari ko'kalamzorlashtiriladi, energiya tejamkor yoritish tizimlari o'rnatiladi, piyodalar va velosiped yo'llaklari barpo etiladi. Shuningdek, ko'priklar orqali ikki tasmali tramvay yo'li yotqizilishi rejalashtirilgan.

Yangi shahardagi yo'llarda jamoat transporti va piyodalariga ustuvorlik beriladi. Hozirda yer ostidan o'tuvchi metro qurilishi boshlangan. Poytaxt va yangi shaharni bog'lovchi metro yo'li hozirgi "Do'stlik" metro bekatidan boshlanib, yangi markazgacha boradi. Shuningdek, shahar bo'ylab tramvay liniyasi metro tarmoqlari bilan bog'lanadi. Bundan tashqari, shaharga kirib kelishda transport tarmoqlari markazi quriladi. Bu nafaqat poytaxt va yangi shaharni, balki Toshkent viloyatidagi Parkent, Yuqori Chirchik tumanlarini ham bog'laydi.

Seyfi KADAYIFCHI,
"XVAV Yapi" kompaniyasi ta'sischi (Turkiya):

– Kompaniyamiz Yangi Toshkentda metro liniyasini qurish bilan bog'liq loyihalarni amalga oshirmoqda. Taxminan 3700 metrdan iborat 4 ta stansiyaning tashkil topgan liniya to'liq Yevropa standartlari darajasida qurilmoqda. Hozirgi kunda bu yerda dastlabki bosqich ishlari boshlangan. Muhtaram Prezident Shavkat Mirziyoyev bu yerga bir necha bor tashrif buyurib, loyihani bevosita kuzatib borayotgan e'tiborga molik. Prezident janoblarining o'z yordamlarini ayamayotganligini har safar ko'riyapmiz.

Yangi Toshkent, haqiqatan ham, ulkan loyihadir. Uning qurilishi jarayonida ishtirok etish biz uchun katta sharaf. Men Turkiya Respublikasidan, turli mintaqalardan, mamlakatlardan bu yerga investorlar kelishini, shuningdek, mazkur loyihaning dunyo miqyosida tanilishini juda istayman.

Fan XIAOJUN,
"TSC-HK-INVESTMENT" xorijiy korxonasi bosh direktori (Xitoy):

– Bu – hayratlanishga arzigulik megaloyiha. Negaki, Yangi Toshkentda barcha shaharsozlik dizayn tamoyillari mujassam. Qurilish bosh rejasida milliy madaniyat va qadriyatlarini uyg'unlashtirish, mahalliy aholi ehtiyojlarini qondirish va barqarorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Bu loyiha bosqichma-bosqich investorlarning e'tiborini tortishi, shubhasiz.

Kompaniyamizning rivojlanish strategiyasida Yangi Toshkent loyihasini ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilab oldik. Biz bu yerda nafaqat inshootlar tiklash, balki O'zbekiston bilan birgalikda o'sish va taraqqiy etishni maqsad qilganmiz.

Dilshod KARIMOV
("Xalq soʻzi").

Endilikda “Bir million dasturchi” loyihasining mantiqiy davomi sifatida “Besh million sun’iy intellekt yetakchilari” loyihasi amalga oshiriladi.

ILMIY SALOHİYAT VA TARAQQIYOTGA UNDOVCHI DA'VAT

Davlatimiz rahbarining o'tgan yili 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasi mamlakat taraqqiyotining hozirgi bosqichi, amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati hamda kelgusi yillar uchun belgilangan ustuvor vazifalarni aniq ifodalab beruvchi muhim siyosiy-strategik dasturdir. Unda yurtimizda so'nggi yillardagi yangilanishlar deklarativ shiorlar doirasida qolib ketmasdan, aniq amaliy natijalar bilan hayotga izchil tatbiq etilayotgani alohida ta'kidlandi. Masalan, birgina ta'lim hamda sog'liqni saqlash sohaslarida amalga oshirilayotgan tizimli o'zgarishlar natijasida maktab, bog'cha va shifoxonalarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanib, aholi uchun qulay hamda sifatli xizmat ko'rsatish shart-sharoitlari yaratilmoqda.

Nuqtai nazar

O'zgarishlarning mantiqiy davomi sifatida Toshkent davlat tibbiyot universitetining tashkil qilinishi milliy sog'liqni saqlash tizimida muhtaqo yangi akademik va institutsional bosqichni boshlab berdi. Ushbu oliy ta'lim muassasasi tibbiyot sohasini raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, klinik amaliyot, ta'lim va ilmiy tadqiqotlarni chambarchas bog'lashga qaratilgan zamonaviy universitet modeli sifatida shakllanmoqda.

Universitetning asosiy maqsadi – xalqaro standartlarga javob beradigan, raqobatbardosh, ilmiy tafakkurga ega hamda innovatsion yondashuvlarni qo'llay oladigan yuqori malakali tibbiyot kadrlarini tayyorlashdir. Oliy ta'lim muassasasi faoliyatida tibbiy ta'limni sun'iy intellekt, raqamli diagnostika, teletibbiyot va biotexnologiyalar bilan integratsiya qilish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Shuningdek, oliygoch oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri – klinik tadqiqotlar, innovatsion davolash usullari hamda ilmiy ishlanmalarni amaliyotda qo'llash orqali milliy tibbiyot maktabini yangi bosqichga olib chiqishdan iborat. Bu esa nafaqat ichki ehtiyojni qondirish, balki kelgusida O'zbekistonni Markaziy Osiyo miqyosida tibbiy ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va yuqori texnologiyali tibbiy xizmatlar markaziga aylantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim hamda ilm-fan uyg'unligi

Ta'lim hamda ilm-fan bilan uyg'un islohotlar tufayli tumanlarda tibbiyot yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim muassasalari tashkil etilib, malakali kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Bu esa tibbiyot xodimlariga bo'lgan ehtiyojni qoplash, soha barqarorligini ta'minlash va xizmat sifatini oshirishga ko'mak bermoqda. Quvonarlisi, endilikda soha vakillari



nafaqat amaliy faoliyat bilan, balki ilmiy tadqiqot ishlari bilan ham shug'ullanishga, innovatsion yondashuvlarni joriy etishga intilayotganidir.

Albatta, ularning ilm-fan va tadqiqotga bo'lgan bunday intilishi tasodifiy emas. Bu, avvalo, ilm, ta'lim va amaliyotni o'zaro chambarchas bog'lashga qaratilgan tizimli siyosatning amaliy natijasidir. Bugun sog'liqni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassis uchun nafaqat klinik tajriba, balki ilmiy tafakkur, tahliiliy yondashuv va innovatsion fikrlash ham zarur kasbiy talabga aylanmoqda. Bu esa tibbiyot xodimlarini yangi bilimlar egallashga, ilmiy tadqiqotlar olib borishga va zamonaviy tibbiy texnologiyalarni joriy etishga undamoqda.

Ta'kidlash joizki, sohadagi tub yangilanishlar sog'liqni saqlash tizimini faqat xizmat ko'rsatish sohasi sifatida emas, balki ilmiy-innovatsion taraqqiyotning muhim drayverlaridan biriga aylantirishga xizmat qiladi. Kelgusi yillarda tibbiyot sohasida klinik tadqiqotlar ko'lamining kengayishi, ta'limning xalqaro standartlar asosida takomillashishi, raqamli tibbiyot va biotexnologiyalar qo'llanilishi kutilmoqda.

Bu esa nafaqat aholi salomatligini mustahkamlash, balki mamlakatning ilmiy salohiyatini oshirish, intellektual kapitalini boyitish va milliy tibbiyot maktabini xalqaro maydonda munosib o'ringa olib chiqish uchun mustahkam zamin yaratadi. Shu tariqa inson qadrini eng oliy qadriyat sifatida belgilagan Yangi O'zbekiston siyosati doirasida tibbiyot sohasining ilmiy asosda rivojlanishi uzoq muddatli barqaror taraqqiyotning muhim omili sifatida namoyon

bo'lib, kelajak avlodlar salomatligi va farovon hayotini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Xalqaro transformatsiya va farmatsevtika sohasi istiqbollari

Murojaatnomada qayd etilganidek, Tokio shahrida Markaziy Osiyo davlatlari va Yaponiya yetakchilari o'rtasida bo'lib o'tgan uchrashuv doirasida ta'lim, tibbiyot, raqamli texnologiyalar, infratuzilma hamda sanoat sohalari bo'yicha qator muhim kelishuvlarga erishildi. Bu davlatlar o'rtasidagi strategik sheriklikni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan bo'lib, ilg'or xalqaro tajribalarni, innovatsion yechimlarni amaliyotga joriy etish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish uchun mustahkam institutsional asos yaratishni ko'zda tutadi. Ayniqsa, tibbiyot ta'limi va sog'liqni saqlash sohasida raqamli transformatsiya yo'nalishlaridagi hamkorlik alohida ahamiyat kasb

rejalashtirilgan. Xususan, kimyo, tog'-kon metallurgiya, neft-gaz, avtomobilsozlik, to'qimachilik va boshqa yetakchi sanoat tarmoqlariga yirik hajmdagi investitsiyalarni kiritish orqali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish ko'zda tutilmoqda.

Ayniqsa, farmatsevtika tarmog'ida 800 mln. dollarlik yangi loyihalarining boshlanishi sog'liqni saqlash tizimi va milliy iqtisodiyot uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Mazkur investitsiyalar mahalliy dori vositalari ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, import o'rmini bosuvchi hamda eksportbop mahsulotlar turini ko'paytirish, biofarmatsevtika, klinik tadqiqotlar va innovatsion laboratoriyalar infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Natijada farmatsevtika sohasi aholini sifatli, xavfsiz va arzon doridarmonlar bilan barqaror ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, iqtisodiyotning innovatsion o'sish nuqtalaridan biriga aylanishi kutilmoqda.

“Ta'kidlash joizki, sohadagi tub yangilanishlar sog'liqni saqlash tizimini faqat xizmat ko'rsatish sohasi sifatida emas, balki ilmiy-innovatsion taraqqiyotning muhim drayverlaridan biriga aylantirishga xizmat qiladi. Kelgusi yillarda tibbiyot sohasida klinik tadqiqotlar ko'lamining kengayishi, ta'limning xalqaro standartlar asosida takomillashishi, raqamli tibbiyot va biotexnologiyalar qo'llanilishi kutilmoqda.”

etmoqda. Jadal islohotlar tibbiy ta'lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish, klinik amaliyot bilan ta'lim va ilmiy tadqiqotlarni integratsiya qilish, shuningdek, zamonaviy tibbiy texnologiyalar va innovatsion diagnostika usullarini keng joriy etish imkonini beradi. Natijada aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini kuchaytirish hamda milliy tibbiyotni global ilmiy makonga uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Darvoqe, investitsiyaviy rivojlanish va farmatsevtika sohasi istiqbollari haqida ham ko'plab yutuqlarga to'xtalib o'tish mumkin. Joriy yilda mamlakat iqtisodiyotini texnologik jihatdan yangilash, yuqori qo'shilgan qiymat yaratish hamda innovatsion tarmoqlarni jadal rivojlantirishda muhim bosqich bo'lishi kutilayotir. Davlat tomonidan belgilangan ustuvor yo'nalishlar doirasida sanoatning turli tarmoqlariga yirik hajmda investitsiyalar jalb etilishi

Sog'lomlashtirish turizmi bizga nima beradi?

Aytish kerakki, sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirish orqali yuqori qo'shimcha qiymat yaratish Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun eng istiqbolli va barqaror yo'nalishlardan biriga aylanmoqda. Zamonaviy tibbiy xizmatlar, profilaktika, reabilitatsiya hamda sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlovchi kompleks dasturlar sohaning mazmun-mohiyatini tubdan yangilab, uni yuqori qo'shilgan qiymatga ega, eksportbop tarmoq darajasiga

Yangi O'zbekiston tibbiyotida kechayotgan institutsional jadal rivojlanish sog'liqni saqlash tizimini ijtimoiy soha doirasidan chiqarib, uni strategik iqtisodiy hamda ilmiy resurs sifatida shakllantirmoqda. Inson qadri, ilm-fan va innovatsiya uyg'unligiga tayangan mazkur yondashuv mamlakatni Markaziy Osiyoda barqaror, raqobatbardosh hamda yuqori qo'shimcha qiymat yaratadigan “tibbiyot xabi”ga aylantirish uchun mustahkam poydevordir.

Shuhrat BOYMURODOV,
Toshkent davlat tibbiyot universiteti rektori.

ASKAR ONALARI E'ZOZLANDI

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda 14-yanvar – Vatani himoyachilari kuni munosabati bilan Uzun tumanida “Askar onalarini sharaflaymiz” mavzuida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Mazkur tadbir doirasida harbiy xizmatni o'tayotgan askarlarning ota-onalari bilan uchrashuvi uyushtirilib, ularning o'z yig'itlik burchini o'tash jarayonida erishayotgan yutuqlari ham namoyish etildi.

– Dunyoda kasblar ko'p, ammo ular orasida eng sharaflisi o'z ona Vatani va xalqining tinchligi uchun xizmat qilishdir, – deydi Munisa Berdiyeva. – O'g'lim harbiy libosda, o'z yig'itlik burchini o'tayotganidan baxtiyorman. Harbiy qismdagi sharoitlar a'lo darajada ekan, asosiyli, milliy armiyamiz yoshlar uchun mardlik va shon-sharaf maktabiga aylangani tahsinga sazovor.

Farzandining jasur va Vatanga sodiq o'g'lon bo'lib kamol topayotganini ko'rgan onalarning chehrasida quvonch, otalarning ko'ksida esa faxr-iftixor tuyg'ulari aks etdi. Tadbir yakunida fidoyi va yurtparvar yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan onalarga samimiy minnatdorlik bildirildi.

Harbiy orkestr ijrosidagi jasorat va mardlik, ona Vatanni madh etuvchi kuylar barchaga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.

Farhod ESONOV
("Xalq so'zi").



FIDening o'zbekistonlik eng yosh sport ustasi

Sarvinoz Begmurotova O'zbekiston shaxmati tarixida ayollar o'rtasidagi eng yosh FIDE sport ustasi sifatida tarixga kirdi.

Gap shundaki, Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) tomonidan iqtidorli shaxmatchimiz S. Begmurotovaga ayollar o'rtasida “FIDE sport ustasi” unvoni berildi.

U ushbu unvonni 12 yoshida qo'lga kiritgan iqtidorli yurtdoshimizdir.

Ma'lumot uchun: ungacha yana bir iqtidorli hamyurtimiz Umida Omonova 2019-yilda 13 yoshida bunday unvonga sazovor bo'lgan edi.



Yurtdoshimiz vitse-chempion!

Butunjahon ayollar tennis uyushmasi tashabbusi bilan Avstraliyada “Canberra Challenger” xalqaro turniri bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Polina Kudermetova vitse-chempionga aylandi.



Hamyurtimiz yakkaalik bellashuvlarning final bahsida tayvanlik Yoxanna Garlandga qarshi kortga chiqdi. Ushbu uchrashuvda yosh tennischimizga birinchi g'alaba qozonish imkoniyatini boy berdi.

Shu tariqa, P. Kudermetova xalqaro turnirning vitse-chempioniga aylandi va 19 700 AQSH dollari pul mukofoti hamda WTA reytingining 81 o'chkosiga ega chiqdi. Yoxanna esa chempion sifatida 33 650 AQSH dollari va 125 o'chkonni qo'lga kiritdi.

Chavandozlarimiz muvaffaqiyati

BAAning Abu-Dabi shahri ot sporti bo'yicha eng nufuzli xalqaro turnirlardan biri – “CSI 5*” (besh yulduzli)ga mezbonlik qildi.



Aytish joizki, mazkur musobaqada faqat yuqori reytingga ega mahoratlil chavandozlar o'zaro bellashadi. Quvonarlisi, ushbu nufuzli bellashuvda Bahromjon G'oziyev, Feruz Abdullayev, Bekzod Qurbonov, Abdurahmon Abdullayev va Akbar Sharipov kabi mahoratlil chavandozlardan iborat O'zbekiston terma jamoasi ham munosib qatnashdi.

Nufuzli musobaqada Bekzod Qurbonov ikkinchi o'rinni egalladi.

“Xalq so'zi”.

Mardlar qo'riqlaydi Vatanni!

AJDODLAR JASORATI AVLODLARGA IBRAT

Markaziy harbiy okrugning Samarqand garnizonida 2017-yilda harbiy tarixiy muzey tashkil etilgan. Bu yerga tashrif buyurgan kishining qalbidagi yurt taqdiriga daxldorlik hissi jo'sh urib, ajdodlarimizning jasorati, fidoyiligi o'ziga xos ruhiy quvvat bag'ishlaydi. Bugun harbiylaru yoshlarning sevimli maskaniga aylangan bu muzey vatanparvarlik targ'ibotining eng samarali vositalaridan biriga aylangan.

– Muzey ekspozitsiyalari Amir Temur va temuriylar davridagi harbiy san'atga bag'ishlangan bo'limlar bilan boshlanadi, – deydi Markaziy harbiy okrug tarbiyaviy-mafkuraviy ishlar boshqarmasi boshlig'i Hamza Umarov. – Unda o'sha davr jangovar an'analari, qo'mondonlik mahorati, harbiy tartib-qoidalar, qurol-yarog' va harbiy aslahalar namunalari aks ettirilgan.

Muzeyning alohida bo'limlari esa milliy armiyamiz va O'zbekiston Respublikasi

Qurolli Kuchlari tashkil etilishi, rivojlanish bosqichlari va erishgan yutuqlariga bag'ishlangan. Shu bilan birga, Markaziy harbiy okrug faoliyati, harbiy-taktik mashg'ulotlar, xalqaro hamkorlik, tinchlikparvarlik operatsiyalari, zamonaviy harbiy texnikalar, harbiy xizmatchilarning fidoyi mehnatini aks ettiruvchi hujjatlar va fotosuratlar joy olgan.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi arafasida Toyloq tumanidagi



21-umumta'lim maktabi o'quvchilari ushbu muzey faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

Zamonaviy talablariga mos ravishda interfaol taqdimotlar, virtual ekspozitsiyalar, videoarxiv bilan jihozlangan muzeyga ekskursiya davomida o'quvchilar buyuk ajdodlarimiz matonati va jasorati, Qurolli

Kuchlarimiz jangovar salohiyati haqida ma'lumotlarga ega bo'ldi. Sayohat yosh avlod qalbidagi Vatanga bo'lgan muhabbatni kuchaytirib, yurtga munosib farzand bo'lish hissini mustahkamladi.

Abdulaziz YO'LDOSHEV
("Xalq so'zi").

Adliya vazirligi tomonidan huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan startap loyihalar 50 million so'mgacha moliyalashtiriladi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-142. 31 016 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqog. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqrig qilinmaydi va mualfiga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohmami rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahriyrga kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Nashrbachi muharrir R. Bobojonov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 00.35 Topshirildi – 00.40 **1 2 3 4 5 6**